



# Vaziyat

O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

2024-yil  
12-dekabr  
№ 50 (991)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

## УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАЖМУИ

Айни кунларда “Конституция — эркин ва фаровон ҳаёт гарови!” бош ғоясини ўзида мужассам этган Бош қонуни-миз қабул қилинганининг 32 йиллиги байрам тadbirlари мамлакатимиз бўйлаб кенг нишонланмоқда.

Ҳар йили Президентимизнинг Конституция байрамини кенг нишонлаш, унинг мазмун-моҳиятини аҳоли, аynиқса, ёш авлодга етказиш борасидаги тегишли фармойиши эълон қилиниши, давлатимиз раҳбари халқимизга табрик йўллаши анъанага айланган. Бу йил ҳам ушбу анъана давом этди.

Шу ўринда таъкидлаш ўринлики, янги тахрирдаги Конституциямизга ҳаётий муҳим ўзгаришлар киритилди, хусусан, мамлакатимиз суверен, демократик, ҳуқуқий, ижтимоий ва дунёвий давлат экани қатъий белгилаб қўйилди, унинг мазмуни тубдан такомиллаштирилиб, янги боб ва моддалар билан бойитилди.

Юртимиздаги ислохотларнинг барчаси, аввало, Бош қонуни-мизда муҳрланган қоида ва тамойилларга мувофиқ ҳаётга татбиқ этилаётганини алоҳида қайд этиш жоиз. Жамиятимизда Конституция ва қонун устуворлигини таъминлаш, қолаверса, конституциявий-ҳуқуқий шароитга мос ҳолда давлат органлари фаоли-

ятининг янгича йўлга қўйилишига гувоҳ бўляпмиз.

Шу ўринда давлатимиз раҳбарининг Конституция ва қонун устуворлиги тамойили барқарор тараққиётнинг асосий мезони эканига доир фикрининг ҳаётимизда ўз аксини топаётгани хусусида қисқача тўхталиб ўтмоқчиман.

Кейинги йилларда иқтисодиёtimиз 2 карра ўсиб, ялпи ички маҳсулот ҳажми 100 миллиард долларлик тарихий маррадан ошди. Аҳоли жон бошига даромад 2018 йилдаги 1 600 доллардан 3 минг долларга етди.

Давоми 3-саҳифада.



### TANTANALI TADBIR

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 32 yilligi munosabati bilan “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” shiori ostida Favqulodda vaziyatlar vazirligida bayram tadbiri tashkil etildi.

Mazkur tadbirda, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A. Qo'ldoshev, FVV harbiy xizmatchilari va xizmatchilarini bayram munosabati bilan qizg'in qutladi. Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni, shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro munosabatlarini tartibga soladigan bosh hujjat ekanini ta'kidladi.

Yangi O'zbekiston hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko'lamli va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning o'rmi va ahamiyati beqiyosligi xususida aytib o'tildi.

Ta'kidlanganidek, “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” bosh g'oyasi negizida o'tkazilayotgan tadbirlarning barchasi yangilangan Konstitutsiyaning jamiyatimiz hayotida naqadar yuksak ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib bermoqda.

Tadbir doirasida FVV Akademiyasi qoshidagi ofitserlar tayyorlash kursini tamomlagan, vazirlik tizimida shartnoma asosida xizmat qilayotgan oliy ma'lumotli oddiy askar va serjantlar tarkibidagi bir guruh harbiy xizmatchilarga navbatdagi “leytenant” harbiy unvonlari tantanali ravishda topshirildi.



## TAYYORGARLIK O'RGANILDI

Favqulodda vaziyatlar vaziri general-mayor A. Qo'ldoshev tomonidan “Qamchiq” dovonining qishki mavsumga tayyorgarligi o'rganildi.

Dastlab ixtisoslashtirilgan xizmatlarning kuch-vositalari va texnikalari shayligi hamda yaratilgan qum-tuz aralashmasi zaxiralari, yo'lda qolib ketgan haydovchi va yo'lovchilar isinislari uchun mo'ljallangan chodirlar ko'zdan kechirildi.

Shuningdek, dovon hududida o'tkazilishi rejalashtirilgan qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari, o'quv nuqtalari o'rganilib, mutasaddilarga zarur ko'rsatmalar berildi. Shundan so'ng, vazir boshchiligida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha hamkorlikda harakat qilishga bag'ishlangan Respublika idoralararo shtab yig'ilishi o'tkazildi.



Unda Ichki ishlar vazirligi, “Qamchiqavtoyol” IYFUK, “O'zbekiston temiryo'llari” AJ va boshqa FVDT tarkibiga kiruvchi vazirlik va idoralar ishtirok etdi. Jarayonda dovon hududida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, shuningdek, qishki qarov ishlari bo'yicha amalga oshirilgan ishlar muhokama qilinib, mutasaddilarga transport vositalarining barqaror hamda xavf-xatarsiz harakati va fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, xavfli uchastkalarga alohida e'tibor qaratish

bo'yicha topshiriqlar berildi, tashkiliy-texnik choralar belgilandi.

Dovon orqali avtotransport vositalari va yo'lovchilarning xavfsiz hamda uzluksiz harakatlarini ta'minlashga jalb etilgan



xizmatlarning texnikalari sozligi, xodimlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar, ularning tegishli asbob-uskunalar bilan ta'minlanganligi holatiga ham jiddiy ahamiyat qaratildi.

Qayd etilganidek, so'nggi yillarda FVV tomonidan dovon orqali avtotransport vositalarining uzluksiz va xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida, harakatni nazorat qilish hamda uning xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Qamchiq” yagona navbatchi-dispatcherlik xizmati tashkil etilgan bo'lib, uning vazifasi aholi va tezkor xizmatlar, hamkor vazirlik, idoralarga favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumot berishdan iboratdir.

Anvar QOBILOV tayyorladi.





## MUHIM MAVZUDA

Surxondaryo viloyati FVBda boshqarma harbiy xizmatchi va xizmatchilari ishtirokida "Yosh avlodga korrupsiyasiz kelajak qoldiraylik" mavzusida mashg'ulot o'tkazildi.

Tadbirida so'z olganlar tomonidan mavzuning dolzarbligini tushuntirib, biz harbiy xizmatchilar xizmatimiz jarayonida balki xizmatdan tashqari faoliyatimizda ham "Men halollik vaksinasi bilan emlanganman" shiori asosida xizmatni tashkil qilishni eng zarur prinsiplardan biri deb hisoblaymiz.

Ta'kidlash lozimki, ushbu zararli hodisa barcha mamlakatlarda uchraydi. Illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha



u bartaraf etilmasdan qolmoqda. Demak, korrupsiyaga qarshi kurashish birinchi navbatda oiladagi muhit va ta'lim-tarbiyadan boshlanadi.

**M.DARXANOV,**  
Surxondaryo viloyati FVB  
boshlig'i I.m.v.b, podpolkovnik.

## QONUNNI BUZMANG!

Qashqadaryo viloyati FVB va uning tarkibiy tuzilmalari xodimlari ishtirokida "Bizning boshqarma korrupsiyadan holi tizim" mavzusida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbir davomida viloyat IIB mas'ul xodimlari tomonidan shaxsiy tarkib o'rtasida harbiy intizomni mustahkamlash,

huquqbuzarlik va qonun buzilishi, shuningdek, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish, harbiy xizmatchi va xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish borasida atroflicha tushunchalar berildi.

**T.TO'RAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
shxb boshlig'i, podpolkovnik.

## QONUNLARNING MAZMUN-MOHIIYATI

"Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida Namangan shahar FV bo'limida harbiy xizmatchi va xizmatchilar ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda viloyat FVB mas'ul xodimi tomonidan shaxsiy tarkibga "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi va "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonunlarning mazmun-mohiyati, korrupsiyaga oid ma'muriy hamda jinoyit javobgarliklar haqida tushunchalar berildi.

Shaxsiy tarkib tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olishda hamda bartaraf etishdagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifani bajarish uchun funksional vazifani sidqidildan bajarish, harbiy va mehnat intizomiga rioya etish, jismoniy

va yuridik shaxslar murojaatini ko'rib chiqishda mansab vakolatini suiiste'mol qilmaslik, xizmat va xizmatdan tashqari vaqtlarda taalluqli bo'lmagan ishlarga aralashmaslik, turli tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarini o'ynamaslik, yo'l harakati qoidalariga rioya etish, giyohvand va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan shug'ullanmaslik kabi masalalarga to'xtalib o'tildi.

**O'tkirbek KALONOV,**  
Namangan viloyati FVB  
SHXB xodimi, podpolkovnik.

## UCH AVLOD UCHRASHUVI

Kasbi tumani 2-kasb-hunar maktabi yoshlari hamda boshqarma tizimida uzoq yillar samarali mehnat qilib, nafaqaga chiqqan faxriylar ishtirokida "Uch avlod" uchrashuvi o'tkazildi.

Tadbirida viloyat FVB boshlig'i o'rinbosari podpolkovnik O'.Hakimov ishtirok etib, yoshlarimizga xizmat faoliyati mobaynida erishgan yutuqlari, bosib o'tgan yo'llari hamda sohaning o'ziga yarasha qiyinchiliklari va murakkabligi, ushbu murakkab yo'lni bosib o'tish uchun yoshlarimiz intiluvchan hamda vatanparvarlik tuyg'usi sari olg'a intilishlari kerakligini eslatib o'tdi.

Tadbirida faol ishtirok etgan yoshlar taqdirlandi. Shundan keyin faxriylarimiz ishtirokida tumandagi ziyoratgohlarga borildi.

**Komil PARDAYEV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB  
Faxriylar kengashi raisi.

## TADBIR

"Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida Namangan tumani FV bo'limida harbiy xizmatchi va xizmatchilar ishtirokida profilaktik tadbir o'tkazildi.

Viloyat FVB va daxldor tashkilotlar mas'ul xodimlari tomonidan Pop va Namangan tumanlari FV bo'limlari shaxsiy

tarkibi ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusida yig'ilish bo'lib o'tdi.

Unda korrupsiya, tamagirlik oldini olish hamda unga qarshi kurashish, diniy ekstremistik oqimlar va yot g'oyalari ta'siridan saqlanish, axborot xavfsizligiga rioya etish, tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o'yinlarini o'ynamaslik,

giyohvand va psixotrop moddalar muomalasiga qarshi kurashish, yo'l harakati qoidalariga, harbiy va mehnat intizomiga rioya etish hamda ID pasport orqali chet davlatlarga chiqish-kirish kabi masalalarda profilaktik tadbir o'tkazildi.

**O'tkirbek KALONOV,**  
Namangan viloyati FVB  
SHXB xodimi, podpolkovnik.

## MATBUOT ANJUMANI

Xorazm viloyati FVBda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi va O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo'limi bilan hamkorlikda OAV vakillari, matbuot kotiblari, jurnalist va blogerlar ishtirokida "Aksilkorrupsiya oyligi" hamda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida ochiq eshiklar kuni va matbuot anjumani tashkil etildi.

Dastavval boshqarma rahbariyati, mas'ul xodimlari va

tegishli tashkilotlar vakillari ishtirokida "Aksilkorrupsiya oyligi" doirasida tashkil qilingan tadbirida ma'ruzachilar tomonidan boshqarmaning korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati, uning ochiqligini ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlarga doir taqdimot o'tkazildi. Shuningdek, boshqarmaning kadrlar siyosati, obyektlarda tekshiruvlarni o'tkazish va uni muvofiqlashtirish, raqamlashtirish va AKTni joriy etish borasida olib bora-

yotgan ishlar xususida ma'lumotlar berildi.

Shaxsiy tarkibiga korrupsiyaviy holatlar va manfaatlar to'qnashuvi, shuningdek, huquqbuzarlik va qonun buzilishining oldini olish, harbiy intizomni mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar yuzasidan atroflicha tushuntirishlar berildi.

**Kamoliddin RAHMONQULOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim  
boshlig'i, podpolkovnik.

## ILMIY VA AMALIY

FVV Akademiyasida "Respublika garnizonlarida yong'in-qutqaruv texnikalarining optimal taqsimoti va ularning innovatsion yechimlari" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Unda FVV, Toshkent shahar FVB, Yong'in xavfsizligi va Favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy tadqiqot instituti rahbariyati va mas'ullari, Fuqaro muhofazasi instituti, O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi universiteti professor-o'qituvchilari, FVV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilari, xizmatchilar va kursantlar hamda OAV vakillari ishtirok etdilar.

Tadbiri FVV Akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov kirish so'zi bilan ochib, yangi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida barcha sohalar qatori ilm-fanni ham

yangi bosqichga ko'tarish, yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda, yong'in o'chirish, avariya-qutqaruv va qidiruv-qutqaruv avtomobillari yordamida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yuzaga keladigan muammolarning ilmiy yechimini topish lozimligi, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri ekanligini alohida ta'kidladi.

Anjumanda so'zga chiqqanlar tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va sodir bo'lgan vaqtda oqibatlarini qisqqa fursatlarda, kam talafotlar bilan bartaraf etish imkoniyatiga ega bo'lgan turli xil ilmiy ishlanmalar ishlab chiqish, horij tajribasini yanada

chuqur o'rganish va tahlil qilish, shuningdek, mazkur soha uchun o'ziga xos va o'ziga mos yong'in-qutqaruv texnikalari, aslaha-anjomlari, qutqaruv vositalarini yaratish, yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda, yong'in o'chirish, avariya-qutqaruv va qidiruv-qutqaruv avtomobillari yordamida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yuzaga keladigan muammolarning ilmiy yechimini topish va amaliyotgan keng jalb etish borasida tavsiyalar hamda keng fikr-mulohazalar bildirildi.

Yakunda tashkilotchilar tomonidan faol ishtirokchilarga tashakkurnoma va esdalik sovg'alari topshirildi.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi  
katta o'qituvchisi, mayor.

## UNIVERSITETDA SEMINAR

FVV Akademiyasi xodimlari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" hamda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish doirasida O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida keng qamrovli profilaktik seminar o'tkazildi.

"Favqulodda vaziyatlar-da aholini muhofaza qilish va hududlar xavfsizligini ta'minlash" mavzusida tashkil qilingan mazkur tadbirida OAV vakillari, universitetning ingliz tili fakulteti rahbariyati, guruhlar tyutorlari, 300 nafarga yaqin talaba-yoshlar, FVV Akademiyasi va Maxsus vazifalar bo'yicha respublika qutqaruv markazi xodimlari

hamda kursantlar ishtirok etdilar.

Seminarda favqulodda vaziyatlar bo'yicha targ'ibot-tashviqot ma'lumotlari, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish va yong'inlarning oldini olish yuzasidan tushunchalar nazariy va to'liq ingliz tilida hamda amaliy o'quv mashqlari tashkil qilish orqali yetkazildi.

Seminarining ikkinchi qismida universitet hovlisida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yuzaga kelganda ularni bartaraf etish bo'yicha qidiruv-qutqaruv maxsus texnika va asbob-anjomlari ko'rgazmasi tashkil qilindi.

Tadbir so'nggida faol ishtirok etgan xodim va kursantlar universitet rahbariyati tashakkurnomalari bilan taqdirlandilar.

**Rushana ROZABOYEVA,**  
O'zJOKU harbiy jurnalistika  
yo'nalishi talabasi.



# УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР МАЖМУИ

Камбағаллик даражаси 23 фоздан 11 фозга тушди. Экспорт қарийб 2 баробар ўсиб, илк бор 25 миллиард доллардан, олтин-валюта захираларимиз эса 40 миллиард доллардан ошди. Ўтган даврда ижтимоий хизматлар тизимида ҳам катта ислохотлар амалга оширилиб, барча ҳудудларда “Инсон” ижтимоий хизматлар марказлари фаолияти йўлга қўйилди ва аҳолига 100 дан ортиқ турдаги ижтимоий хизматлар кўрсатиб келинмоқда.

Бугунги кунда давлатимиз ва халқимиз манфаатларини кўзлаб қабул қилинган “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини изчиллик билан амалга оширишда Бош қонуниimiz мустаҳкам таянч бўлмоқда.

Жорий йилда янгиланган Конституциямиз талаблари асосида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси депутатлари, халқ депутатлари вилоят, туман ва шаҳар кенгашлари депутатлари сайлови юқори даражада ўтказилди.



Бу муҳим сиёсий жараёнлар “инсон – жамият – давлат” тамойили асосида ўтказилгани, янги парламент янги Конституцияга мувофиқ иш бошлагани барчамизга чексиз ғурур ва ифтихор бағишламоқда.

Конституциямизнинг устувор талаб ҳамда вазифаларидан келиб чиқиб, мустақиллик йилларида аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш ҳамда ёнгин хавфсизлигини таъминлашнинг ишончли миллий тизими яратилди. Кейинги йилларда эса Президентимизнинг фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва ҳаракат қилиш давлат тизими, хусусан, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги фаолиятини тубдан такомиллаштиришга доир фармон ва қарорлари қабул қилиниши натижасида ушбу соҳа сифат ва мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтарилиб, чинакам халқчил тизимга айланди, десак муболаға бўлмайди.

Бугунги кунда вазирликнинг моддий-техника базасини такомиллаштириш, вазирлик қутқарув тузилмаларининг жанговар тайёргарлигини ошириш, уларни замонавий махсус автотехника ҳамда қутқарув

асбоб-анжомлари билан таъминлаш, қутқарувчиларнинг касбий маҳоратини юксалтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Қутқарувчиларимиз фуқароларнинг Бош қонуниimizда белгиланган, таъбир жоиз бўлса, энг олий, яъни яшаш ҳуқуқини ҳимоя қилиб, уларнинг ҳаётини фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилмоқда, қалтис дамларда уларга умид ва ишонч бағишлаб, ҳаётга қайтармоқда.

Янги таҳрирдаги Конституциямиз талабларига мувофиқ, вазирлик томонидан 9 та норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳалари ишлаб чиқилиб, қабул қилинди. Уларнинг ҳар бирида соҳани такомиллаштиришга қаратилган муҳим нормалар, қолаверса, “Инсон қадри учун” тамойили асосида аҳоли манфаатларини кўзловчи янги қоидалар мавжуд.

Масалан, аҳоли турар жойларида эҳтиётсизлик туфайли келиб чиқадиган ёнгинда уй эгаларини маъмурий жавобгарликка тортиш аввалги қо-

нунчиликда белгиланган эди. Ваҳоланки, бошпанаси ёниб кул бўлган уй эгалари бу вақтда маънавий ва моддий ёрдамга муҳтож бўлиб қолишига кўп гувоҳ бўлганмиз. Шунинг учун вазирлик ташаббуси билан Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ёнгинлар профилактикаси самардорлигини оширишга қаратилган кўшимча ва ўзгартиришлар киритиш ҳақида қонун лойиҳаси ишлаб чиқилди ҳамда жорий йилнинг март ойида қабул қилинди.

Маҳаллалардаги уй-жой фондида фуқароларнинг эҳтиётсизлиги ёки ёнгин хавфсизлиги қоидаларини бузиши натижасида ёнгинлар келиб чиқиши оқибатида фақатгина ўзига тегишли яшаш хонадони ёки мол-мулкига зарар етказилган бўлса, улар маъмурий жавобгарликдан озод этилиши белгиланди.

Бундай мисолларни яна кўплаб келтириш мумкин. Асосийси, бу борада ҳали олдимизда кўплаб норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни Бош қонуниimiz талаблари асосида такомиллаштириш ва ишлаб чиқиш вазифаси турибди.

Яна бир эътиборли жиҳат шундаки, Президентимизнинг тегишли

фармон ва қарорига мувофиқ, жорий йилда вазирлик тизимида сейсмик хавфсизликни таъминлашни ташкил этиш, экологик дипломатия, авиация ва авиация-қутқарув технологиялари каби бўлимлар ҳамда касбий малакаларни ривожлантириш бўйича алоҳида бош мутахассис лавозими янгидан ташкил этилди.

Шунингдек, жорий йилда телевидениелар орқали аҳолини фавқулодда вазиятлар хавфи ёки рўй берганлиги тўғрисида хабар беришнинг автоматлаштирилган тизими яратилди, 21 та ўта муҳим ва тоифаланган объектда локал даражадаги хабар бериш тизимлари янгиланиб, аҳоли гавжум жойларда тадбиркорлик субъектларига тегишли бўлган 300 дан ортиқ ахборот таблоси орқали фавқулодда вазиятлар профилактикасига оид видеороликларни узатиш механизми жорий этилди.

Поёнига етаётган йил давомида халқаро ҳамкорлик борасида ҳам қатор ижобий натижаларга эришилди. Жумладан, Ҳиндистон, Озарбайжон ва Қозоғистоннинг тегишли вазирлик ва идоралари ҳамда Россия ва Озарбайжон Фанлар академиялари ўртасида ҳамкорлик тўғрисидаги меморандумлар, Осиёда офатлар хавфини камайтириш халқаро ташкилоти, Марказий Осиё – Хитой формати, Россия Фавқулодда вазиятлар вазирлиги ўртасида 2024–2025 йилларга мўлжалланган тадбирлар режалари тасдиқланишига эришилди.

Вазирлик тизимида амалга оширилаётган ишлар натижасида сўнги беш йилда фавқулодда вазиятлар сони 41 фоз, ёнгинлар эса 31 фоз камайганини эътироф этиш жоиздир.

Вазирлик шахсий таркиби фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш билан боғлиқ соҳа йўналишларида асосий вазифаларини бажариш билан бирга, мамлакатимиз ҳаётида стратегик аҳамият касб этган ижтимоий-иқтисодий, маънавий-маърифий тадбирларга ҳам фаол жалб этилиб, қатор соҳалар ривожига ҳисса қўшиб келмоқда.

Хусусан, “Обод қишлоқ”, “Обод маҳалла” давлат дастурлари доирасида турли ҳудудларда амалга оширилаётган бунёдкорлик, ободонлаштириш, Оролбўйида яшил қопламалар яратиш, куз-қиш мавсумини беталафот ўтказишга қаратилган ишларда вазирлигимиз ходимларининг алоҳида хизматлари бор.

Жорий йилнинг январь-март ойларида Орол денгизининг суви қуриган ҳудудларида тегишли вазирлик ва ташкилотлар билан ҳамкорликда қарийб 218 минг гектар ҳимоя ўрмонзорлари (режа 200 минг гектар) барпо қилингани эътиборга молик.

Шунингдек, “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида вазирлигимиз ходимлари йил давомида 882 мингдан зиёд манзарали ва ме-



вали дарахт кўчати экди.

2024 йил 12 январь куни Президентимиз томонидан 500 минг ёшни оталиққа олиб, улар билан манзилли ишларни ташкил этиш белгиланган эди. Шундан келиб чиқиб, алоҳида эътиборга муҳтож ёшлар орасидан ҳарбий соҳани ўрганиш, хусусан, қутқарувчиликка қизиқиши юқорилари учун вазирлик ҳудудий бошқармалари ҳузуридаги Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув марказларида 5 кунлик ўқув курслари ташкил этилди.

Бундан ташқари, “Юртнинг кучи – бирликда, қадри эса – тинчликдадир” шиори остида “Фавқулодда вазиятлар вазири кубоги” учун спорт мусобақалари ўтказилиб, 9 мингдан ортиқ ёш ўқитилди.

Ёшлар билан манзилли ишлар натижасида 1300 дан зиёд ёш пробация ва профилактик ҳисобдан чиқарилди, мактаб дарсларига қайтарилди ва низоли ёш оилалар яраштирилди. Қолаверса, юздан ортиқ ёш вазирлик тизимидаги қутқарувчи лавозимига қабул қилинди.

Хулоса ўрнида айтганда, мавжуд имконият ҳамда имтиёزلардан самарали фойдаланиш, аввало, юксак ишончли оқлаш учун барчамиз ўз устимизда ишлашимиз, ҳуқуқий маданият ва онгимизни юксалтиришимиз, ижтимоий-сиёсий фаоллигимиз ва фуқаролик масъулиятимизни янада оширишимиз лозим.

Зиммамиздаги масъулиятли вазифаларимизни талаб даражасида бажариш, шахсий масъулият ҳиссини янада ошириш, фаолиятимизни юқори талабчанлик ва қонунийлик асосида ташкил қилиш ҳар биримизнинг асосий бурчимиз бўлиб қолаверади.

Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг ҳар бир ходими улуғ аждодларимизга муносиб ҳолда ҳар лаҳзада юртимизни фавқулодда вазиятлардан асраш учун камарбаста бўлади, “Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш” шиори остида она юртимиз, халқимиз фаровонлиги йўлида фидойилик билан хизмат қилади.

Бундан кейин ҳам ушбу соҳани ҳар томонлама ривожлантириш, унинг моддий-техника базаси ва кадрлар салоҳиятини мустаҳкамлашга, янада халқчил тизимга айлантириш учун барча куч ва имкониятларимизни сарфарбар этамиз.

**Абдулла ҚҮЛДОШЕВ,**  
Фавқулодда вазиятлар вазири,  
генерал-майор.  
“Янги Ўзбекистон”  
2024 йил, 8 декабрь



Rishton tumanida "Yashil makon" umummilliy loyihasining kuz-qish mavsumiga start berildi.

## YASHIL MAKON

Respublikamizda ekotizimlarni himoya qilish va tiklash, ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish va yashil maydonlarni kengaytirish borasida "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirilishi muhim qadam bo'ldi. Sektor rahbari, tuman hokimi Bahodir Xoliqov, "Nuroni" jamg'armasi tuman bo'limi raisi Tursunxo'ja Abdurahmonov ishtirokida o'tkazilgan seminarda Mahalla uyushmasi, tuman bo'limi xodimlari, MFY raislari, tuman faollari, tashkilot, korxonalar rahbarlari qatnashdilar.

**Xojakbar ERGASHEV,**  
moddiy-texnik ta'minot va texnikalardan foydalanishni nazorat qilish bo'limi I darajali serjant.

## TAVSIYALAR BERILDI

Namangan viloyati Mingbuloq tumani hududida obyektlar qurilishi uchun ajratilishi tavsiya etilgan yer uchastkalari materiallarini kelishish bo'yicha kelib tushgan 264 ta elektron murojaatlarni shaharsozlik normalari va qoidalariga muvofiqi o'rganib chiqildi. Ulardan 218 tasida qurilish ishlari olib borish uchun ijobiy xulosa va tavsiyalar berildi.

Tuman hududidagi 11 ta qurilish va rekonstruksiya qilinayotgan obyektlarda tekshiruvlar o'tkazilib, ularda yong'in xavfsizligi qoida-talablariga rioya qilinmaganligi, qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yganligi sababli 11 nafar mansabdor va jismoniy shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirildi.

**Shukurullo OMONULLAYEV,**  
Mingbuloq tumani FV bo'limi katta inspektori, katta serjant.

## NEFT VA GAZ KONLARIDA NAZORAT

Buxoro viloyati FVB Muborak NGQCHB OBYOXTTEB 21-yong'in-qutqaruv qismi tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasiga qarashli "Dengizko'l siquv kompressor stansiyasida" faoliyat olib borayotgan ishchi-xizmatchilar va ko'ngilli yong'indan saqlash xizmatini doimiy saviyasi va jangovarligini ta'minlash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish va ularda to'g'ri harakat qilish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, is gazidan zaharlanish hamda gaz va havo aralashmasi chaqnashi kabi baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha keng ko'lamli targ'ibot tadbirlari o'tkazilmoqda.

**Mirg'olib SHARIPOV,**  
Buxoro viloyati FVB Muborak NGQChB OBYOXTTEB 21-YoQQ boshlig'i o'rinbosari, kapitan.



## UYUSHQOQLIKDA O'TMOQDA

"Navoiy kon metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" davlat korxonasi obyektlarida Yong'in xavfsizligining ta'minlashni tashkil etish markazi va uning joylardagi bo'lim xodimlari tomonidan aholi yashash va muhofazaga olingan obyektlarda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida profilaktik tadbirlar kuchaytirilgan tartibda amalga oshirilmoqda.

Oylik doirasida fuqarolarning favqulodda vaziyatlarda va yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilishlari hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga doimiy ravishda amal qilishlari borasida ko'plab tadbirlar o'tkazilayapti.

**Ma'rufjon HAYITOV,**  
"NKMK" va "Navoiyuran" davlat korxonasida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi xodimi, katta serjant.

## PROFILAKTIK ISHLAR

Buxoro viloyati FVB "Point vizion" OYOXTTE bo'linmasi xodimlari tomonidan obyekt ishchi-xizmatchilariga kuz-qish mavsumida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan keng ko'lamli targ'ibot tadbirlari amalga oshirildi. Yong'in o'chirish vositalaridan qanday usulda foydalanish, is gazidan zaharlanish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilmoqda.

**Vahob ASHUROV,**  
Buxoro viloyati FVB "Poitn vizion" OYOXTTE bo'linma boshlig'i, kapitan.

## METROPOLITEN BEKATLARIDA

"Toshkent metropoliteni" DUK yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'limi shaxsiy tarkibi hamda Yunusobod tumani FV bo'limi jangovar ekipajlari va Metropoliten ishchi-xizmatchilari bilan favqulodda holatlarda hamkorlikda harakat qilish borasida bekatlarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazilib kelinmoqda.

O'tkazilayotgan amaliy mashg'ulotlar davomida metropoliten ishchi-xizmatchilari yong'in kelib chiqqanda uni bartaraf etish, fuqarolarni evakuatsiya qilish, jabrlanganlarga birinchi yordamni ko'rsatish mashqlarini bevosita yong'in xavfsizligi xodimlari bilan birgalikda bajardilar. Alohida e'tibor fuqarolar bilan ishlashga qaratildi. Yong'in yuz berganda sarosimaga tushmasdan, bekatdagi fuqarolarni tashqariga yo'naltirib olib chiqishdi.

**J.ABDURAIMOV,**  
Toshkent Metropoliteni DUK bo'lim kichik inspektori, katta serjant.  
**J.URMASHYEV,**  
bo'lim inspektori, katta serjant.

## QONUNIYLIK VA ADOLAT MEZONI KAFOLATI

O'zbek xalqining tarixi asrlar qa'riga borib taqaladi va uch ming yildan ortiq davrni qamraydi. Yurtimiz hududida o'z davrida gullab-yashnagan – Katta Xorazm, Baqtriya, So'g'd, o'rta asrlardagi Movarounnahr, Turkiston kabi davlatlar; Samarqand, Buxoro, Termiz, Toshkent, Xiva, Shahrisabz singari o'nlab noyob qadimiy shaharlar jahon madaniyatida yorqin iz qoldirgan. Ana shu boy o'tmishimiz sivilizatsiya jarayonlari va falsafiy qarashlar, ilm-fan, ayniqsa, tibbiyot, astronomiya, geografiya, matematika, geodeziya va arxitektura sohalari rivojiga, madaniy va ma'naviy qadriyatlarining shakllanishiga sezilarli darajada hissa qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, zamonaviy va juda muhim normalarning hayotga qat'iy hamda izchil tatbiq etilishi, xususan, sudlar tomonidan ana shu Konstitutsiyaviy qoidalarining to'g'ridan-to'g'ri qo'llanishi yurtimiz va xalqimiz tarixida inson huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini va qadr-qimmatini ulug'lash borasida yangi davrni boshlab bermoqda.

Xulosa o'rinda aytadigan bo'lsak, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Asosiy qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalardagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

Konstitutsiya inson huquq va erkinliklari, qonuniylik va adolat mezoni kafolati sifatida huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilaveradi.

**FARRUX MAMAZIYAYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kafedra o'qituvchisi, kapitan.

## QIZIQARLI MASHG'ULOT



O'zbekiston Milliy universiteti jurnalistika fakultetining 1-bosqich magistrantlari FVV tizimida "On-layn jurnalistikada ziddiyatli vaziyatlarning yoritilishi" modulidan amaliy mashg'ulot o'tashdi. Vazirlik muassisligidagi "Muhofaza" jurnali va "Vaziyat" gazetasi birlashgan tahririyati bosh muharriri, O'zbekiston Yozuvchilar va Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, taniqli yozuvchi, publisist Azamat Suyunov FVV tasarrufidagi gazeta hamda jumallarda ziddiyatli vaziyatlarning yoritilishi xususida muhim ma'lumotlar va qiziqarli holatlarni hikoya qilib berdi.

Magistrantlar tahririyat ishi, maqolalarning tayyorlanishi, shuningdek, jurnal va gazetada bosib chiqarish haqida to'liq tasavvurga ega bo'ldilar. Amaliy mashg'ulot juda qiziqarli va maroqli o'tdi.

**Iqbola JAHONGIROVA,**  
O'zMU Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich magistranti.

## MUROJAATLAR NAZORATDA

Jizzax viloyati FVBda ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda Jizzax harbiy prokuraturasi, FVV mas'ul xodimi, viloyat FVB rahbariyati va Soliq boshqarmasi, Jizzax viloyati Ishga marhamat monomarkazi xodimlari hamda boshqa tashkilot va idoralardan tegishli soha mutaxassislari jalb qilinib, qabulda harbiy xizmatchilar, xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari ishtirok etdilar.

Qabulda viloyat FVB harbiy xizmatchilari, ularning oila a'zolari ishtirok etib, mas'ullar tomonidan 20 ta turli yo'nalishdagi xususan, uy-joy, kredit masalalari, xodimlarning oila a'zolarini ishga va farzandlarini Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga joylashtirish bo'yicha murojaatlar tinglandi. 7 ta murojaat joyida qanoatlantirilib, 8 ta murojaat nazoratga olingan holda vakolatli tashkilotlarga yuborildi. 5 ta murojaatga esa atroficha tushuntirishlar berildi.

Sayyor qabul yakunida ayol fuqarolarning harbiy guvohnomalari o'z egalari topshirildi.

**Iftixor UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.



## BOSH QOMUSIMIZ VA TA'LIM-TARBIYA

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya – xalqimizning yakdilligi va hamjihatligi asosida yaratilgan bosh siyosiy-huquqiy hujjatdir.

2023-yil 30-aprel kuni mamlakatimizda o'tkazilgan umumxalq referendumida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinganligi tom ma'nodagi tarixiy voqea hisoblanadi.

Biz – yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan mutaxassislar oldida tabiiy savol tug'iladi. Xo'sh, Yangi Konstitutsiya soha yo'nalishi bo'yicha qanday yangi imkoniyatlarni tufha qildi?

Jumladan, Yangi Konstitutsiyada ta'lim olish huquqi va imkoniyati yanada kengaytirildi, o'qituvchilar alohida konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldilar. Ijtimoiy davlatga xos yondashuvlar negizida ta'lim sohasiga oid ko'plab modda va normalarda ham o'z ifodasini topdi. Ta'lim va ilm-fanga oid normalar qariyb 2 barobarga oshirildi. Fuqarolarning oliy ta'lim muassasalarida davlat granti hisobidan o'qish huquqi qat'iy belgilab qo'yildi. Birgina misol, 2017-yilgacha oliygohlarda o'qish uchun davlat grantlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, oxirgi yillarda bu boradagi ahvol butunlay o'zgardi.

Shuningdek, nogironligi bor farzandlarimizga o'z tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olish uchun barcha sharoitlarni yaratish ko'zda tutildi. Shuning uchun, bunday imkoniyatlar inklyuziv ta'lim sifatida Konstitutsiyaga kiritildi. Bu e'tibor shunday nuqsonlarga ega bolalarning yakkalanib qolmasligi, jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida shakllanishi va kamol topishi uchun muhim kafolatdir.

Bundan tashqari, bizga ilk bor ta'lim-tarbiya bergan ustozlarimizning nufuzini oshirishga qaratilgan normalar Konstitutsiyada o'z aksini topdi. Konstitutsiyada davlatning o'qituvchilar sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi

to'g'risida g'amxo'rlik qilish majburiyati kuchaytirildi.

Ayni qoidalar mamlakatimizdagi o'qituvchilarning professional o'sishi hamda ijtimoiy va moddiy qo'llab-quvvatlanishi ularning jamiyatdagi ijtimoiy maqomi, obro'sini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Mamlakatimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi davrga qadam qo'ymoqdamiz. Chunki, yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish bilan biz Uchinchi Renessans uchun huquqiy poydevor yaratdik. Bugun xalqimiz intilayotgan ana shu buyuk maqsadni amalga oshirishga munosib hissa qo'shaman, degan har bir yurt-doshimiz, avvalo ushbu poydevorga tayanib, harakat qilishi lozim. Ayniqsa, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarishda, yoshlarimiz kelajagi uchun mustahkam zamin hozirlashda Asosiy qonunimiz ularga beqiyos imkoniyatlar ochib beradi".

Shunday ekan, bugungi kunda ta'limning qaysi bosqichida bo'lmasin, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar o'z ustida muntazam ishlashi, bilim-malakasini doimiy oshirib borishi, zamonaviy ilm-fan sirlari, pedagogikaning ilg'or texnologiyalarini puxta o'zlashtirishi va ularni ta'lim-tarbiya jarayonida faol qo'llashi, bir so'z bilan aytganda, Yangi O'zbekiston davridagi oqilona islohotlarni amalga teran tatbiq etishda fidoyilik ko'rsatmog'i zarur. Zero, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi uchun mas'ul bo'lmoqlikning o'zi har doim, har lahza fidoyi va tashabbuskor bo'lmoqlikni taqozo etadi.

**Abduqayum ABDULLAYEV,**  
CHDPU Bolalar sporti kafedrasini mudiri,  
dotsent, falsafa fanlari doktori (PhD).

## MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT

Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB boshlig'i podpolkovnik Azamat Davletov tomonidan shaxsiy tarkibga "Ta'lim islohotlar va ma'naviy komil inson tarbiyasi" mavzusida dars o'tildi.

Shuningdek, shaxsiy tarkib orasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklar, korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan illatlarga

yo'l qo'ymaslik va oldini olish borasida Nukus harbiy prokuraturasi xodimlari keng qamrovli profilaktik tushuntirish ishlarini olib bordi.

**Aybek ABDIRAHMANOV,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB  
matbuot xizmati boshlig'i, mayor.

## MAVSUM TADBIRLARI

To'rtko'l tumani "Guliston", "Ibn Sino", "Anxorli", "Nurli Uli-bog'", "Yoshlik" MFYlarida joylashgan aholi turar joylarida bo'lim shaxsiy tarkibi bilan aholini is gazidan zaharlanishining oldini olish maqsadida o'rganish ishlari olib borildi.

Unda "Yoshlik" MFYdagi 1-ko'p qavatli uyda nosoz, nostandart isitish pechidan foydalanayotganlar aniqlanib,

gaz tarmog'i muhrlandi va aholi turar joylarida aniqlanayotgan kamchiliklar bo'yicha tuman FV bo'limi boshlig'i podpolkovnik A.Jumashov va hamkorlikdagi tashkilot rahbarlariga tegishli tartibda topshiriqlar berildi. Shuningdek, tumandagi 12-umumta'lim maktabi isitish qozonlarining mavsumga tayyorgarlik holati o'rganib chiqildi.

**M.TURLIBAYEV,**  
To'rtko'l tumani FV bo'limi 18-YOQQ  
boshlig'i, mayor.

## HAMKORLIKDA

Andijon magistrat elektr tarmoqlari filiali "Bobur podstansiyasi"da o'quv-amaliy seminar bo'lib o'tdi.



Viloyat prokuraturasi vakili hamda Andijon shahar FV bo'limi xodimlari

ishtirok etgan tadbirda, turli xil ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda qay tartibda harakat qilish kerakligi yuzasidan mashg'ulot tashkil etildi.

Obyekt toifalangan hudud, xavf yuzaga kelganda, avvalo, podstansiya xodimlari va yong'in-qutqaruv bo'linmalarining qay tartibda harakat qilishligi amaliy tartibda ko'rsatib berildi.

**Faroxiddin HUSANBOEV,**  
Andijon shahar FV bo'limi kichik inspektori, I-darajali serjant.  
**Abdulaziz OTAQO'ZIEV,**  
bo'lim inspektori, kapitan.

## BAYROG'IMIZ – FAXRIMIZ!

Jizzax viloyati FVBda Davlat bayrog'i qabul qilinganining 33 yilligiga bag'ishlangan "Bayrog'imiz - faxrimiz" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda boshqarmaning harbiy xizmatchi va xizmatchilari ishtirok etdi.

Unda O'zbekiston bayrog'i bizni ulug' maqsadlar tomon boshlovchi buyuk mash'ala ekani hamda Davlat ramzlari har bir xalqning mustaqilligi, ozodligi, tinchligi va barqarorligi timsoli bo'lish bilan birga, millat bayrog'i sifatida yuksak e'zozlanishi, ushbu muhim sananing tarixi hamda bayrog'imizda milliy-tarixiy an'analarimiz, uzoq o'tmishga borib taqaladigan boy madaniyatimiz, poklik, beg'uborlik, yax-

shilik, donishmandlik va sadoqat kabi buyuk fazilatlarimiz o'z ifodasini topgani xususida keng fikr-mulohazalar bayon etildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakat va jamiyat taraqqiyoti hamda uning barqarorligida davlat ramzlarining alohida o'rni bor. Shu ma'noda, milliy bayrog'imiz davlat va jamiyat hayoti, uning jahon hamjamiyatidagi o'rni hamda ro'lini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, har birimiz uchun iftixor timsoli hisoblanadi. Bayrog'imiz millatning birligi, mustaqillik timsoli sifatida o'sha xalqning orzu-istaklarini, umidlarini, kelajakka bo'lgan ishonchini o'zida ifoda etadi.

**Ravshan IBRAGIMOV,**  
Jizzax viloyati FVB boshlig'i, polkovnik.

## O'QUV

Chust tumani FV bo'limi yong'in-qutqaruvchilari hamda daxldor tashkilotlar xodimlari bilan hamkorlikda tuman hududida faoliyat ko'rsatayotgan o'ta muhim va toifalangan obyektlarda, shuningdek, yirik savdo markazlarida hamda bozorlarda tungi maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazilib, qutqaruvchilarning kasb mahoratlari oshirib kelinmoqda.

Navbatdagi mashq Chust dehqon bozorida yong'in-qutqaruvchilarni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlarning oldini

olish, ko'ngilsiz hodisalar yuzaga kelganda to'g'ri va aniq harakat qilish, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini o'z vaqtida bartaraf etish borasidagi bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

Shuningdek, shartli ravishda sodir bo'lgan yong'inni bartaraf etishda daxldor tashkilotlar xodimlarining o'z yo'nalishlari bo'yicha harakatlari ko'rsatib berildi.

**Tursinali JO'RAYEV,**  
Chust tumani FV bo'limi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## MUSOBAQA

FVV Boshlang'ich tayyorlik va malaka oshirish markazida vazirlik tizimidagi yong'in-qutqaruv bo'linmalariga yangi qabul qilingan va lavozimga tayinlangan harbiy xizmatchi hamda xizmatchilarning boshlang'ich kurs tayyorgarligidan o'tayotgan tarkib orasida o'quv yig'ini davomida olgan bilim saviyalarini mustahkamlash hamda ularning jangovar tayyorgarligini oshirish maqsadida "Yong'in o'chirish amaliy sport" musobaqasi o'tkazildi.

Unda tinglovchilar ishg'ol qilish narvoni bilan o'quv minorasining 4-qavatiga ko'tarilish, 100 metr to'siqlar osha yugurish hamda ekipajning jangovar yoyilishi kabi shartlarda bellashdilar.

Qizg'in va murossasiz kechgan bellashuvlar yakuniga ko'ra, 1-shart bo'yicha 1-o'rinni oddiy askar M.Ismoilov

egallagan bo'lsa, 2-o'rin oddiy askar D.Bobojonovga nasib etdi. 3-o'rinni esa oddiy askar R.Abdullayev qo'lga kiritdi.

Bellashuvning 2-sharti bo'yicha 1-o'rin oddiy askar M.Salimovga, 2-o'rin oddiy askar H.Sadriddinovga, 3-o'rin esa xizmatchi M.Xudoyberdiyevga nasib etdi.

So'nggi shart bo'yicha birinchi o'rinni 7-vzvod jamoasi, ikkinchi o'rinni 3-vzvod jamoasi hamda uchinchi o'rinni 5-vzvod jamoasi qo'lga kiritdi. G'oliblar markaz rahbariyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

**U.SOLIYEV,**  
FVV BT va MOM katta o'qituvchisi,  
podpolkovnik.  
**Sh.MAMATQULOV,**  
markaz o'qituvchisi, mayor.



Qamashi tumani FV bo'limi tomonidan turli obyektlarda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida profilaktik tadbirlar kuchaytirilgan tartibda amalga oshirilmoqda.

## OYLIK DOIRASIDA

Aholi, korxonalar va tashkilot ishchi-xizmatchilariga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ro'y berganda to'g'ri harakat qilish, o't o'chirgichlardan foydalanish tartiblari shuningdek, is gazi, gaz-havo aralashmasi chaqnashi bilan bog'liq holat-

larining oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berilib, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanmoqda.

**SH.DIYAROV,**  
Qamashi tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

**J.JABBOROV,**  
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

## OGOH BO'L, QURUVCHI

Urganch tumani FV bo'limi tomonidan tuman hududida yangi qurilayotgan va qayta ta'mirlanayotgan maskanlarda qurilish ishlarini olib borayotgan ishchilar, vaqtinchalik turar joylarda "Vagon" shiori ostida ishchi-xizmatchilar, payvandchilar va muhandis-texnik xodimlar ishtirokida yong'in sodir bo'lganda qanday harakat qilish yuzasidan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Davlat arxitektura va qurilish nazorati hududiy inspeksi-

yasi bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbir davomida qurilish maydonlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning oldini olish, yong'in sodir bo'lganda ko'ngilli yong'in o'chirish drujinasining birinchi galdagi vazifalari va harakatlari xususida atroflicha so'z yuritildi.

**Sanjar PANAYEV,**  
Urganch tumani FV bo'limi katta inspektori, kapitan.

## XAVFSIZLIK YUZASIDAN

Bo'ka tumani FV bo'limi tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" davomida muntazam ravishda tuman hududidagi korxonalar va tashkilotlarda, ijtimoiy soha obektlarida, fuqarolar yashash uyalarida, talabalar turar joylarida, qurilish obektlarida favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yong'in xavfsizligini ta'minlash, ayniqsa is gazidan zaharlanishning oldini

olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Mazkur tadbirlar chog'ida aholiga xavfsizlik yuzasidan yo'riqnomalar o'tkazilib, eslatmalar tarqatilayapti.

**SH.ERGASHOV,**  
Bo'ka tumani FV bo'limi bo'linma kichik inspektori, kichik serjant.

## HARBIY QISMIDA

Jizzax viloyati FVB tomonidan Jizzax garnizoni yong'in nazorati inspeksiyasi bilan hamkorlikda Mudofaa vazirligiga qarashli Jizzax garnizonidagi harbiy qismda "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida nazariy va amaliy, ko'rgazmali o'quv mashg'uloti hamda profilaktik tadbir o'tkazildi.

Tadbirida mutaxassislar tomonidan harbiy xizmatchilarga harbiy qism hududi va

binolarida, yashash xonadonlarida yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasining chaqnashi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda gaz va elektr jihozlaridan xavfsiz foydalanish bo'yicha atroflicha ma'lumot berildi.

**Iftixor UMAROV,**  
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.

## KO'NIKMALAR OSHIRILDI

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida profilaktik tadbirlar kuchaytirilgan tartibda amalga oshirilmoqda.

Unda aholi, korxonalar, tashkilot ishchi-xizmatchilari va harbiylarga sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ro'y berganda

to'g'ri harakat qilish, o't o'chirgichlardan foydalanish tartiblari shuningdek, is gazi, gaz-havo aralashmasi chaqnashi holatlarining oldini olish bo'yicha tushuntirishlar berilib, bilim va ko'nikmalari mustahkamlanmoqda.

**SH.QOBILOV,**  
Yakkabog' tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## TIBBIYOT KOLLEJIDA

Buxoro viloyati Qorako'l tumani FV bo'limi tomonidan Tibbiyot kollejida amaliy seminar tashkil etildi.

Seminar davomida yong'inlar, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasi chaqnashi kabi holatlar, ularning yuzaga kelishi sabablari, oldini olish choralarini, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish, xonadonlar va talabalar yotoqxonasida qo'lbola va nostandart isitish vositalaridan foydalanmaslik, gaz uskunalardan foydalanishda

xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, gaz va havo aralashmasi chaqnashini yuzaga keltiruvchi sabablar tahlili va ularning oldini olish, gaz hidini sezganda elektr vositalaridan foydalanmaslik, energotejamkor uskunalardan foydalanish tartibi to'g'risida ma'lumotlar berildi. Amaliy qismda yong'in-qutqaruv asbob-anjomlari ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazma

davomida yong'in o'chirish vositalarining vazifalari, yerosti suv olgichlaridan foydalanish tartibi, yong'in qutqaruvchisining maxsus kiyimlari, yong'inlarning oldini olishda har bir fuqaroning mas'ul ekanligi, energotejamkor uskunalardan foydalanishning afzalliklari to'g'risida aytilib o'tildi.

**O'lmas RAJABOV,**  
Qorako'l tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari.

## "IS GAZI — ZAHARLI BIRIKMA"

So'nggi yillarda qish mavsumida yurtimizda is gazidan zaharlanish va buning oqibatida fuqarolarimizning hayotdan ko'z yumishi bilan bog'liq holatlar tez-tez uchrab turadi.

Is gazidan zaharlanish aktsiyat hollarda, fuqarolar tomonidan gaz va muqobil yoqilg'i turlaridan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etmasliklari oqibatida sodir bo'lmoqda.

Is gazi bu — rangsiz, hidsiz bo'lgan zaharli birikma. Ushbu birikma tabiiy gaz, yoqilg'i,

ko'mir, o'tin cho'g'lari to'liq yonmasligi oqibatida vujudga keladi. Sodir bo'lgan holatlar tahlillari shuni ko'rsatmoqda ki kunlarning sovushi bilan yurtimiz fuqarolari birinchi navbatda o'z uylarini isitish maqsadida nostandart yoki sertifikatga ega bo'lmagan isitish pechlari va anjomla-

ridan foydalanishlari, dudburonlarni noto'g'ri o'rnatishlari, havo tortish zonti bo'lmagan xonalarni isitishda ochiq olovdan foydalanishlari, shamollatish yo'llarini berkitib qo'yishlari oqibatida kelib chiqmoqda.

**J.KARIMOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB boshlig'ining birinchi o'rinbosari — Shtab boshlig'i, polkovnik.

## AEROPORTDA MASHQ

"Urganch xalqaro aeroporti" MCHJda "Zilzila haftaligi" hamda "Yong'in xavfsizligi oyligi" munosabati bilan "Zilzila va uning oqibatida kelib chiqqan favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish" mavzusida amaliy maxsus-taktik o'quv mashqi tashkil etildi.

Mashq davomida zilzila sodir bo'lganda fuqaro muhofazasi tuzilmalarining harakatlari, ishchi-xodimlarning xavfsiz joyga evakuatsiya qilinishi va jabrlanganlarni qutqarish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, binoning yuqori qavatidan insonlarni qutqarish, zilzila oqibatida kelib chiqqan

yong'inlarni bartaraf etish amaliy tarzda ko'rsatib berildi.

**S.TOREMURATOV,**  
Xorazm viloyati FVB bo'lim boshlig'i, mayor.  
**I.MATYAKUBOV,**  
boshqarma bo'lim inspektori, katta leytenant.

## SAVOBLI ISH

Barcha qatori "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasida ham hayrli ishlarni amalga oshirmoqda.

Xususan, ko'chatlarni yetishtirish, ekish va parvarishlash, tizimli sug'orish ishlariga mas'ullarni tayinlash bo'yicha aniq va manzilli vazifalar belgilanib olinib, yashil hududlarni kengaytirish,

ekologik holatni yaxshilash bo'yicha do'vonda hududlar kesimida yashil maydon va bog'lar tashkil etilmoqda.

Birgina boshqarmaning ma'muriy binosida 1,98 gektar maydon ko'kalamzorlashtirildi. Ko'chat ekish ulug' va savobli amallardan hisoblanib, yerni obod qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Ko'chat ekayotgan

kishi nafaqat o'ziga, balki yon-atrofdagilarga, kelajak avlodga ham manfaat yetkazadi. Boshqarma tomonidan yaratilayotgan yashil maydonlarning ko'p qismi adirlik joyda bo'lganligi sababli tomchilatib sug'orish yo'lga qo'yildi.

**A.QUDRATOV,**  
"Qamchiq" Maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi bo'lim boshlig'i, kichik serjant.

## BETALAFOT O'TKAZAYLIK

Namangan davlat universiteti va Namangan pedagogika instituti talabalari ishtirokida "2024 – 2025-yillar kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish hamda zilzila sodir bo'lganda to'g'ri harakat qilish, fuqarolarni xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish" mavzusida uchrashuv seminari o'tkazildi.



Tadbirida talabalar turar joyida yong'in xavfsizligini ta'minlash, sodir bo'lishi

mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha tushunchalar berildi.

Bundan tashqari, talabalar ijara turgan aholi xonadonlari va ko'p qavatli uylarda ham qish mavsumida nostandart va ruxsat etilmagan elektr hamda gaz isitish anjomlaridan foydalanmaslik, chaqnash va is gazidan zaharlanish holatlarining ol-

dini olish bo'yicha qator tushuntirish ishlari olib borildi.

**N.RAHMONOV,**  
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.  
**A.ASQAROV,**  
Namangan shahar FV bo'limi inspektori, katta leytenant.



# RAHBAR MA'NAVIYATI VA KASB ETIKASI

Bugungi murakkab zamonda yoshlarni tarbiyalashda teran ildizlardan suv ichgan azaliy qadriyatlarimiz bilan birga, ularni ma'naviy uyg'otadigan, kelajakka ruhlantiradigan, ko'ngil ko'zini ochadigan, milliy g'ururini yuksaltiradigan badiiy asarlarga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jaddid bobolarimiz kabi G'arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarurdir. Ma'rifatparvar ajdodlarimiz yozgan asarlar, ilgari surgan g'oya va tashabbuslar bugungi kunda yurtimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish, xalqimizni zamonaviy ilm-fan yutuqlariga oshno etish, el-yurtga sadoqat va milliy g'urur tuyg'ularini yuksaltirish, umuman, Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan hayotbaxsh islohotlarga mazmunan uyg'un va hamohangdir.



Eng muhimi, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifatni rivojlantirish bugun muayyan tashkilotlarninggina emas, butun xalqimizning ishi, har birimizga tegishli dolzarb vazifa ekanligiga urg'u berilyapti. Chunki bu zalvorli yumush hamma birlashsa, jipslashsa, bir yoqadan bosh chiqarib, bir musht bo'lib harakat qilinsagina ro'yobga chiqadi. Bu masalalarga beparvolik, loqaydlik, panja ortidan qarash esa kelajagimizga, el-yurtimiz taqdiriga bepisandlik, hatto xiyonat bilan barobardir. Yana shuni ham aytish kerakki, tarixda qaysiki qo'shin ma'naviy tarqoq bo'lsa, jangchilarning ruhiyati, imoni sust, axloqiy darajasi tuban bo'lsa, albatta, ular orasidan biror sotqin chiqqan, alal-oqibat shiddatli muhoroaba boy berilgan, xalq qullikka, mutelikka mahkum qilingan. Bunday taqdir sabab hatto nomi tarix sahifalaridan o'chib ketgan millatlar ham, afsuski, kam emas. Shu bois xalqimiz yoshlarni tarbiyalashda, jismini chiniqtirish bilan bir vaqtda ularning ma'naviy-ruhiy barkamolligiga alohida e'tibor qaratgan. "Bilagi zo'r birni yig'ar, bilimi zo'r mingni", "Odob – oltindan qimmat", "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar" kabi xalq maqollari ana shunday yondashuvlar mahsuli.

Tarix saboqlari shuni ko'rsatadiki, xalqning jahon sahnidagi o'rnini butunlay o'zgartirib yuborgan katta janglarda askarlarning ma'naviy darajasi yuksakligi, e'tiqod va irodasi mustahkamligi, jangovar ruhi balandligi, yovqurligi, vatanparvarligi, hamjihatligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

1526-yilda yuz ming lashkar, shuningdek, jangovar fillarga ega qo'shinni 12 ming askar bilan yengib, Hindistonni zabt etgan Bobur Mirzo bobomiz so'zlarimizga misol bo'la oladi. Mazkur jangda ulug' sarkardaning mahorati bilan birga ma'naviy maslagi, o'z askarlarida jangovar ruhni, kelajakka ishonchni, qat'iyatni,

madrlik va jasoratni tarbiyalay olgani, birdamlikni, jipslikni qaror toptira bilgani muhim rol o'ynagan.

Shu o'rinda aytish lozimki, rahbar ma'naviyati – rahbarning shakllangan ruhiy quvvatidir. Uning ma'naviy psixologik madaniyati ajdodlar ibratiga asoslanib, qadriyat darajasida qadrlanadigan, shaxs ma'naviy olamini tartibga soladigan, ko'nikma darajasiga yetgan hissiy bilimlar majmuidir. Rahbar o'z rahbarlik salohiyatini takomillashtirishi uchun ma'naviy olamini boyituvchi bilimlarni egallashi, tashabbuskorlik qobiliyatini oshirishi zarur. Rahbarning ma'naviy mulkiga aylangan bilim unga xohish-istaklarini chegaralay bilish, o'zini tashqi tazyiq va ta'sirlardan himoya qilishga vosita bo'ladi. Ya'ni, ma'naviy jihatdan barkamol rahbar bo'lish har qanday ijtimoiy-psixologik muhitda o'zini tuta bilib, o'zi rahbarlik qilayotgan jamoada hamda keng jamoatchilik orasida sog'lom muhit yaratish va insonlarga samimiy munosabatda bo'lishdan qoniqib yashaydi. Ma'naviyati yuksak rahbar jamiyatdagi yomonlik, adolatsizlik, qonunbuzarlik, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashda iroda, shijoat va faollik ko'rsata oladi.

Rahbar madaniyati esa rahbar xodimlar, yetakchilarga xos ma'naviy qiyofo, axloq-odob, muomala va boshqaruv madaniyatini ifodalovchi so'z birikmasi hisoblanadi. Madaniyat, avvalo, ma'naviy boylik hosilasidir. Siyosiy madaniyati yuksak rahbar millat, davlat, xalq manfaati nuqtai nazaridan ish tutadi, umummanfaatni o'z shaxsiy ehtiyoj va manfaatlardan ustun qo'yadi. Rahbar va rahbarlikka da'vogar shaxs alohida xulq-atvorga, ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lishi, uni doimiy ravishda takomillashtirib borishi lozim. Buning uchun siyosiy hayotdan xabardor bo'lish yoki iqtisodiy va kasbiy bilimlarni o'zlashtirishning o'ziga kifoya

qilmaydi. Ular jahon tajribalari asosida shakllangan ilg'or boshqaruv malakalarini ham o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Bugungi rahbar bunga zimmasidagi vazifalarga yuksak mas'uliyat bilan yondashish, o'ziga nisbatan talabchanlik orqali erishadi. Masalan, u har kuni gazeta-jurnallar o'qishi, radio va oynai jahon yangiliklaridan xabardor bo'lish orqali ham ma'lum darajada bilim olishi mumkin. Siyosat, iqtisod va ma'naviyatga daxldor kitoblar, mumtoz adabiyot, tarixiy jarayonlarni chuqur mushohada qilish ham uning dunyoqarashini kengaytiradi. Agar aql-zakovati, tafakkuri, ma'naviy kamoloti, madaniyati bilan rahbar mustaqil fikrlashdan, mushohada qilishdan, kundalik voqea-hodisalarni teran tahlil etib borishdan uzoqlashsa, rahbarlik talab etgan ma'naviyatdan uzoqlashadi. Rahbar o'zining ma'naviy faoliyatini fikrlash orqali shakllantirib boradi. Mushohada esa mushohadadan quvvat oladi. Amerikalik mashhur olim va ixtirochi Tomas Edison "Taraqqiyotning buyuk vazifasi odamni fikrlashga o'rgatishdir", degan edi. Vujud yalqovligi fikrlash yalqovligidan boshlanadi, fikrlash to'xtagan joyda rahbarning ma'naviyati ham, madaniyati ham zaiflashib boradi.

Rahbar ma'naviyat va madaniyatning kuch-qudratidan ezgu maqsadlar yo'lida samarali foydalanishi, boshqaruv tizimidagi ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlik g'oyalari asosida rivojlantirib borishi darkor. Rahbarning tanqidi odamlarga katta va asosiy ta'sir ko'rsatuvchi vositadir. Shuning uchun ham uni kerakli vaziyatda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ishlatish kerak. Rahbarlik uslubi boshqarish madaniyatining ma'lum elementlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Boshqarish madaniyatining ko'rinishlari tegishli me'yorlar bilan belgilanadigan madaniyat qoidalarini o'z ichiga oladi. Rahbarlar bilan oddiy odamlar o'rtasidagi munosabatlarda madaniyatilik qoidalariga asoslanishi kerak. Bu qoidalar ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, kishilar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari, o'zaro hurmat, hamjihatlik va birodarlik kabilardan iborat. Rahbarlik madaniyatini takomillashtirish uning barcha elementlariga e'tiborni kuchaytirish demakdir. Bularning barchasi rahbar madaniy saviyasining o'sib borishiga va siyosiy madaniyatining takomillashuviga katta yordam beradi. Chunki, cheklangan tafakkur, chala bilim, past madaniyat bilan dunyoda ro'y berayotgan murakkab jarayonlarni teran anglash, mas'uliyatli vazifa va mansabni egallab bo'lmaydi. Binobarin, demokratik asosda shakllanib borayotgan jamiyatimiz talabi shuki, siyosiy yetuk, aqlan va ma'nan barkamol, puxta bilimga ega bo'lgan teran tafakkurli kishilarga rahbar bo'lishga haqlidir.

Rahbarlarni ma'naviy-psixologik madaniyati darajasi nuqtai nazaridan bir necha toifaga bo'lishi mumkin:

1. Ma'naviy saviyasi nisbatan past shakllangan rahbarlar oddiy axloqiy-ruhiy fazilatlaridan mahrum, jamiyat ma'naviy me'yorlarini tushunib yetmaydigan va ularni mensimaydigan shaxslardir.

2. Ma'naviy madaniyati, axloqiy darajasi past bo'lishi bilan birga, jamoat fikri, oila, xalq an'analari va boshqa qadriyatlar bilan bog'liq psixologik muhitni buzuvchi rahbarlar.

3. Axloqiy me'yorlarni hayotiy zarurat sifatida ichki ishonch va tuyg'u bilan o'zlashtirmay, ularni ko'r-ko'rona qabul qiluvchi rahbarlar nazariy jihatdan yuqori

bilimga ega bo'ladi, amalda esa bu bilimlarni qo'llay olmaydi yoki ularda tashkilotchilik qobiliyati yetishmaydi.

4. Ruhan zaif, ma'naviy madaniyati ancha yuqori bo'lsa-da, adolatsizlikni o'tkir hissiyot bilan qabul qiladigan rahbarlarda axloqiy bilimlar yetarli, ammo ularni namoyon qilish uchun tashabbuskorlik, mustaqillik va shijoat yetishmaydi.

5. Ma'naviy madaniyat va siyosiy-psixologik bilimlarni yetarli darajada egallagan, tashabbuskor, shijoatli rahbarlar chuqur bilim, teran tafakkur va o'tkir mushohada, ma'naviy hissiyotlarga boy bo'ladi.

Psixologik bilimlarni atroficha o'zlashtirgan rahbar o'zida yuqori darajadagi madaniyat, xulq, axloq me'yorlarini mujassamlashtiradi. Bu esa rahbar o'zida individual va intellektual saviyani har tomonlama takomillashtirib borishini taqozo qiladi. Rahbarlarning shaxsiy e'tiqodi va ma'naviy qiyofoasi tubdan o'zgartirishga mustaqil taraqqiyot yo'lida to'plangan tajriba, kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar katta yordam beradi. O'zining rahbarlik faoliyatini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, kelajak uchun qayg'uradigan rahbar hech bir davrda milliy g'oya va ma'naviy mafkurasiz kamol topishi mumkin emas. Ma'naviy qiyofoasi, ma'naviy mafkurasi bo'lmagan har qanday rahbar o'z yo'lidan adashadi. Qaysi jamiyat ma'naviy barkamol rahbarga ko'proq ega bo'lsa, ana shu jamtdagi tarixiy taraqqiyot, tiklanish keskin siyosiy "larzalar"siz, ijtimoiy "og'riqlar"siz va iqtisodiy "o'pirilishlar"siz kechadi. Ma'naviy nuqtai nazardan yuksak, ongi tiyrak rahbar uchun kadrlar bilan katta yo'lga chiqish, xalq, millat oldida turgan barcha muammolarni ijobiy hal etish oson kechadi.

Rahbar ma'naviyatining shakllanishi va rivoji, odatda, uch tarkibiy bo'g'inda namoyon bo'ladi. Mafkura ko'rinishidagi birinchi bo'g'in – ma'lumot, axborot to'plash, asosan so'z, mulohaza, ibrat, g'oya va nazariyalar darajasida ifodalanaadi. Rahbar ma'naviy meros, qadriyatlar bilan tanishadi, ularni o'zlashtiradi, yangilikni dunyoqarashiga singdiradi. Bu ishonch bo'g'inidir. Ikkinchi bo'g'in – insonga yoshligidan singdirilgan madaniy-ma'naviy qarashlar, axloqiy qadriyatlar, an'analari, diniy-ruhiy tuyg'ular. Bu bo'g'inda u oilasi, qarindosh-urug'lari, mahallasi, millati bilan birligini his etadi. Natijada, uning ongi va qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi shakllanadi. Bu bo'g'in – imon bo'g'ini. Shu boisdan ham ajdodlarimiz "Vatanni sevmoq imondandir" g'oyasini ilgari surganlar. Milliy qadriyatlarini tiklash, bobolar qoldirgan ma'naviyatni ulug'lash, undan ibrat olish, o'zlikni anglash lozim.

Ma'naviyati qashshoq, o'zining mustaqil dunyoqarashi, fikriga ega bo'lmagan odamga har qanday vayronkor g'oya o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Yangi O'zbekistonimizning ertangi kuni ma'naviy-madaniy barkamol, ruhan tetik, mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, zamonasining ilmiy-texnika taraqqiyoti talablariga mos kasb-hunar mahoratini o'zida mujassam etgan, g'ururi baland, iymoni butun, irodasi baquvvat, chinakam vatanparvar, insofli va oriyatli insonlar qo'lida.

Anvar QOBLOV sahifani tayyorladi.



## ODAMNI HALOKATDAN ASRAGAN HAYVONLAR

Sherlar guruhi odamga yaqinlashsa, bir necha soniya ichida nima bo'lishini tasavvur ham qilish qiyin. Lekin bir mo'jizaviy voqea buning mutlaqo aksini isbotlagan. Yosh qizni majburlab turmushga bermoqchi bo'lgan erkaklar tomonidan o'g'irlab ketilgani va kaltaklanganidan so'ng, hayoti xavf ostida qolganini his qilgan yirtqichlar o'zining hayvoniy instinktlarini bir chetga surib qo'yishi mumkinligini ko'rsatdi.

2005-yilda Efiopiyada sodir bo'lgan g'alati hodisada uchta sher 12 yoshli qizni o'g'irlaganlarni quvib, haydadi va qizga yordam kelguniga qadar kamida yarim kun qo'riqlab turdi. Yordamga kelganlarga qizni sovg'a sifatida qoldirib, o'rmonga qarab ketishdi. Agar sherlar uni qutqarmaganida, voqea

yaxshilik bilan tugamagan bo'lardi. Hamma buni qandaydir mo'jiza, deb aytadi, chunki sherlar odatda odamlarga hujum qilishadi. Qizning hayqirig'ini eshitgan sherlar uni biror-bir hayvonning yangi tug'ilgan bolasi, deb qabul qilgan, shuning uchun ular unga hamla qilmagan, – deydi yovvoyi

tabiat bo'yicha mutaxassis Styuart Uilyams.



## OLIVIYA FARN SVORT

Angliyaning Haddersfild shahrida yashovchi Oliviya Farnsvortni dunyodagi kamdan-kam uchraydigan xromosoma kasalligi egasi bo'lish "baxtiga" muyassar bo'lganligi tufayli uni "bionik qiz", deb atashadi. Oliviya hech qachon charchamaydi, kun davomida ovqatlanmaydi va og'riq sezmaydi.

Boshqa har qanday noyob qobiliyatlar singari Oliviyaning bu kasalligi ham o'zini to'satdan namoyon qildi. 2016-yilda 7 yoshli qizaloqni onasining ko'z o'ngida mashina urib yuborgan va 30 metrga sudrab ketgan. Oliviyaning onasi dahshatga tushdi, qizaloq esa o'rnidan turib, ust-boshini qoqib tashlab, hech narsa bo'lmagandek, uning oldiga kelgan. Qizaloq tanasining ko'krak qismidagi shina izi va oyoqlaridagi shilingan terisi baxtsiz hodisaning yagona dalili edi.

Qizning o'ziga xosligini tasdiqlagan yana bir voqea biroz keyinroq sodir bo'ldi va bundan ham jiddiyroq oqibatlariga olib keldi. Oliviya qattiq yiqilib, labi yirtildi, lekin uning o'zi bunga e'tibor ham bermadi. Qizaloqning qiyofasini plastik jarrohlarni tiklashiga to'g'ri keldi. Bundan tashqari, noyob hodisa tufayli Oliviyaning sochlari juda sekin o'sardi va bolaligida ma'lum bir uni "o'g'il bola", deb masxara qilishardi. Vaqti-vaqti bilan sodir



bo'lib turadigan agressiv holati uning oila a'zolarini butunlay qo'rqitib qo'ydi. Chunki qiz g'azablanib, tanasining og'riqni his qilmaydigan barcha qismlari, shu jumladan, boshi bilan boshqalarga zarar yetkazishi mumkin edi.

Oliviyaning ota-onasi shifokorlarga yordam so'rab murojaat qilganida, ular yelka qisib qo'yishdi, chunki bunday holat haqida hech qanday tibbiy manbada ma'lumot topilmadi. Biroq, "bemor" xususiyatlarini o'rganishda davom etgan shifokorlar ushbu holatni "6-xromosoma bir qismining yo'qolishi", deb tavsiflashdi. Tadqiqotchilar hali ham qizaloqda bunday g'alati va o'ziga xos kasallik paydo bo'lishi sabablarini aniqlashga harakat qilishmoqda.

U oilasi bilan Xaddersfildda yashaydi, maktabda a'lo baholarga o'qiydi. Uning onasi Nikki Trepak, ochlikni his qilmaydigan qizi ovqat vaqtini o'tkazib yubormasligi va sog'lom bo'lishi uchun kerakli miqdordagi kaloriyalarni iste'mol qilishini ta'minlash uchun doim hushyor turadi. U har kecha qiziga uxlab, dam olishi uchun uyqu dori beradi. Bundan tashqari, Oliviyadagi ichki jarohatlar yoki boshqa kasalliklarning oldini olish maqsadida har hafta tibbiy ko'rikdan o'tishga majbur. Afsuski, shifokorlar hali ham Oliviya Farnsvortning noyob hodisasi va uni davolash mumkin yoki yo'qligi haqida bosh qotirishadi, chunki bu holat tarixda birinchi marta qayd etilgan.

## BOLANI ALLALAGAN GORILLA



Hayvonot bog'ida ona gorilla qafasga tushib ketgan uch yoshli odam bolasini ko'tarib, xavfsiz joyga olib o'tdi. Bu mo'jiza hayvonlar bo'yicha mutaxassislarni butunlay hayratda qoldirgan. 1996-yilda AQShning Chikago shahridagi "Brukfil'd" hayvonot bog'ida bolakay onasi qo'lidan sirg'alib, gorillalar qafasiga tushib ketadi. O'shanda 6 metr balandlikdan yiqilgan bolaning qo'li sinib, yuzi jiddiy jarohat olgan. U yerda odam bolasiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yettita katta gorilla kezib yurardi, lekin Binti Jua laqabli ona gorilla darhol yugurib borib, uni ko'tarib oldi, bag'riga bosdi, hayvonot bog'i xodimlari kelganidan so'ng qafas chetiga o'tib, bolani ularga berdi.

Bintining xatti-harakatidan hayratda qolgan hayvonlar bo'yicha ekspertlar o'sha paytda uning onalik instinktlari ishga tushib ketgan, degan xulosaga kelishdi. Qizig'i, o'sha paytda uning orqasiga yopishib olgan o'zining bolasi ham bo'lgan.

## ITLAR CHAQALOQNI QUTQARGAN

2021-yili tunda dalaga tashlab ketilgan chaqaloqni it topib olgan, so'ng u kuchukchalari bilan uni o'rab olib, kechasi bilan isitib chiqqan.

Hindistonning Chat-tisgarx provinsiyasi mahalliy aholisining aytishicha, kimdir tunda yangi tug'ilgan chaqaloqni yalang'och holda tashlab ketgan. Ularning qo'shimcha qilishicha, kuchuklar tun bo'yi uni quchoqlab yotgan. Shu qishloqda yashovchi bir kishi voqea haqida shunday dedi: – "Kuchukchalar va ularning onasi tana harorati bilan bola hayotini saqlab qolgan, axir, hozir dekabr oyi, odatda kechasi harorat sovuq bo'ladi.

Shifokorlar tomonidan tekshirilgandan so'ng chaqaloq "Childline" (Bola yo'li) loyihasiga topshirildi va unga Akanksha deb ism qo'yishdi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



# Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat*  
*kompyuterxonasida*  
*sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

*Sahifalovchi:*  
**B.SALOHIDDINOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007-yil  
3-yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va*  
*tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-1252  
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.  
Adadi - 9300 nusxa